ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA O'ZLASHGAN SO'ZLARNING QO'LLANILISHI

ToshpoʻlatovaB.H.

Samarqand davlat chet tillar instituti, Sharq tillari fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi, 2-kurs 24.10- guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola tildagi o'zgarishlar va o'zlashgan so'zlarning tasnifi, ta'siri va ularning tilda tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Til, tafakur,o'zlashgan so'z, atama, lug'at, moslashuv.

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Faculty of Oriental Languages, Uzbek Laguage and Literature, 2nd year, group 24.10 student

The use of borrowed words in modern Uzbek

Annonation: This article contains information about changes in the language and the classification of borrowed words, their impact, and their place in the language.

Key words: Language, thinking, borrowed word, term, dictionary, adaptation.

Til nafaqat insonlar o'rtasidagi oddiy muloqot vositasi, balki har bir millatning ma'naviy asosini tashkil etuvchi fundamental hodisa hisoblanadi. Til inson tafakkurining ifodasi bo'lib, olamni idrok etish, bilimlarni to'plash va avloddan avlodga uzatishning yagona imkoniyatidir.Ona tilimiz milliy g'urur va Vatan tuyg'usini shakllantiruvchi kuch sanaladi.

Ma'lumki, tilimizda o'zlashgan so'zlar mavjud. Ya'ni o'zlashmalar – bu tilning lug'at tarkibiga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar va atamalar. O'zlashish til boyligini oshirishning tabiiy usuli hisoblanandi. O'zbek tilidagi o'zlashmalar asosan quyidagi tillardan kirib kelgan: arabcha, fors-tojikcha, ruscha va G'arb tillari.

Arab tilidan asosan “kitob”, “ilm”, “adolat”, “muallim” kabi so'zlar o'zlashgan. Shu kabi so'zlar tilimizga o'rta asrlarda kirib kelgan. Fors-tojik tilidan esa “bozor”, “devon”, “do'st”, “non” kabi so'zlar o'zlashgan. Bular asosan ma’daniy va adabiy aloqalar ya’ni davlatchilik masalalari davrida kirib kelgan. “Vagon”, “poyezd”, “zavod”, “direktor”, “partiya” kabi so'zlar tilimizga rus tilidan o'zlashgan. Bunday so'zlar tilimizga Chor Rossiyasi va Sovet davrida kirib kelgan. “Kompyuter”, “ofis”, “menejment” va shu kabi so'zlar tilimizga G'arb tillaridan o'zlashgan. Bunday so'zlar asosan globallashuv davrida kirib kelgan hisoblanadi.

O'zlashma so'zlar tilning fonetik va morfologik qonunlariga qarab o'zgaradi. Masalan, ruscha- стол, arabcha- stul.

O'zlashma so'zlarning tilimizda qo'llanilishi juda keng va murakkab hisoblanadi. U tilining tarixi, rivojlanishi va boshqalar bilan chambarchas bog'liqdir. O'zlashmalar o'zbek tiliga kirib kelganda uch darajada o'zgarishga uchraydi. Ya’ni bular: fonetik moslashuv, morfologik moslashuv va semantik moslashuvdir.

Fonetik moslashuv ya’ni bu so'zning tovush tarkibi, tilning fonetik qoidalariga moslashuvidir. Masalan, “стол”-“stul”

Morfologik moslashuv ya’ni bunda o'zlashma so'zlar o'zbek tilining grammatik qo'shimchalarini qabul qiladi. Masalan, kompyuter+lar=kompyuterlar, zavod+ning=zavodning.

Semantik moslashuvdan o'zlashgan so'zning ma’nosi tilga kirib kelgach, torayishi, kengayishi va umuman boshqa ma’no anglatishi ham mumkin. Masalan, “ilm” so'zi dastlab keng ma’noda qo'llanilsa, o'zbek tilida ilmiy yoki diniy bilim ma’nosiga urg'u beradi.

Bundan tashqari o'zlashmalar sof o'zbekcha so'zlar bilan sinonimik juftliklar hosil qiladi va nutqda uslubiy rang berish uchun xizmat qiladi. Masalan:

Sinonimik juftliklar (o'zlashma+sof o'zbekcha so'z)

1. Mavzu – tema
2. Baho – narx
3. Tarix – o'tmish
4. Muammo - dard

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbek tilining izohli lug'ati" (5 jildli yoki 2 jildli) 2006-2008, 2020, 2022

2. Shomaqsudov A, Rasulov I, Qo'ng'urov R, Mirzayev G "O'zbek tili statistikasi" – Toshkent: 1983

3. Tilshunoslikka kirish bo'yicha darsliklar.

4. H. Jamolxonov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent – "Talqin" – 2005

5. G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" – Toshkent: 2008